



Conflict and psychology: the writer's perspective on inner struggle

Dilfuzakhon FAIZULLAYEVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

conflict,
inner struggle,
psychology,
literature,
writer,
contradiction,
psychological analysis.

ABSTRACT

This scientific article explores how conflict and psychology, particularly internal struggles, are depicted in literature. Additionally, it analyzes the concept of conflict from the perspective of internal contradictions in human psychology. The study examines how and when conflicts are employed to reveal the inner worlds of characters in the works of American and Uzbek writers. It also highlights the role of conflict as a key tool in portraying the complexity of human psychology and its importance in addressing the challenges characters encounter in their development. The research draws on examples from modern literature, analyzing the portrayal of internal struggles from the writer's perspective.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp181-186>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Konflikt va ruhiyat: yozuvchi nigohidagi ichki kurash

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Konflikt,
ichki kurash,
ruhiyat,
adabiyot,
yozuvchi,
ziddiyat,
psixologik tahlil.

Mazkur ilmiy maqolada konflikt va ruhiyat, ya'ni ichki kurash masalalari badiiy adabiyotda qanday aks etgani o'rganiladi. Shu bilan birgalikda, maqolada konflikt tushunchasining inson psixologiyasidagi ichki ziddiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Amerika va o'zbek yozuvchilari ijod namunalarida qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda konfliktlardan qanday va qachon foydalanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, konflikt inson ruhiyatining murakkabligini aks ettirishning muhim vositasi hisoblanib, qahramonlarning rivojlanish yo'lida hal qilishda qay darajada muhim ahamiyatga egaligi ushbu maqolada ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy adabiyot namunalari asosida yozuvchi nigohidagi ichki kurashlar va ularning tasviri o'rganiladi.

¹ Independent Researcher, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: dilfuzamahmudova4@gmail.com

Конфликт и психология: внутренняя борьба с точки зрения писателя

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

конфликт,
внутренняя борьба,
психика,
литература,
писатель,
противоречие,
психологический анализ.

В данной научной статье исследуется, как в художественной литературе отражаются вопросы конфликта и психологии, в частности внутренняя борьба. Кроме того, анализируется понятие конфликта с точки зрения внутренних противоречий человеческой психики. Рассматривается, как и в каких случаях конфликты используются для раскрытия внутреннего мира героев в произведениях американских и узбекских писателей. Также в статье обсуждается важность конфликта как средства отражения сложности человеческой психики и его роль в решении проблем, с которыми сталкиваются герои на пути своего развития. Исследование основано на примерах современной литературы, а внутренние конфликты анализируются с точки зрения писателя.

KIRISH

Adabiyotda konflikt va ruhiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, yozuvchi qahramon ruhiyatini ochib berishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Konfliktlar insonning ichki dunyosi, ruhiyati, qaror qabul qilish jarayonini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada konflikt va ruhiyatning o'zaro bog'liqligi hamda yozuvchilarning qahramon ruhiyatini ochishda qanday usullardan foydalangani tahlil qilinadi. Negaki, konflikt va ichki kurash masalalari har qanday badiiy asarning markaziy qismida turadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Adabiy obrazlar orasidagi tashqi kurashlardan ko'ra insonning o'z ichidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ancha murakkab va chuqur tahlil talab qiladi. Aytek Azimov va Hojiakbar Shayxov kabi yozuvchilarning asarlarida bu mavzu keng yoritilgan. Ularning ijodida ichki kurash orqali insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlari ochib beriladi.

TADQIQOT OBYEKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Maqolada zamonaviy amerika va o'zbek adabiyoti namunalari, xususan, Aytek Azimov va Hojiakbar Shayxov asarlaridan namunalar keltirilib, konflikt va ichki kurash tushunchalari tadqiq etiladi. Ma'lumki, har ikki yozuvchi ilmiy fantastika janrida barakali ijod qilishgan, shu sababli ilmiy fantastik asarlardagi konflikt va ruhiyat o'ziga xos tarzda o'rganiladi, chunki bu janr inson tafakkuri, jamiyat, texnologiya va koinot bilan bog'liq murakkab savollarni ko'taradi. Bu janrda qahramonlar nafaqat tashqi dunyo bilan, balki o'zlarining ichki dunyosi bilan ham kurashadilar. Tadqiqotda psixologik va qiyosiy tahlil metodi qo'llanilgan bo'lib, adabiy matnlarni tahlil qilish orqali yozuvchi tasvirlarida inson ruhiyati qanday aks etganini aniqlash maqsad qilingan.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ilmiy fantastik asarlarda konflikt odatda texnologiya, kelajak jamiyati yoki koinot bilan bog'liq bo'lib, qahramonlarning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi. Ushbu konfliktlar ikki turga ajratilishi mumkin:

• **Tashqi konflikt:** Asosiy konflikt ko'pincha ilmiy va texnologik taraqqiyot yoki noma'lum kosmik hodisalar bilan bog'liq. Masalan, kosmosni zabt etish, sun'iy aql yoki insoniyat kelajagi kabi mavzular markazida turgan konfliktlar.

• **Ichki konflikt:** Qahramonlarning ichki dunyosida kechayotgan ziddiyatlar texnologik taraqqiyotning ijobiy yoki salbiy ta'siri bilan bog'liq. Texnologiya, sun'iy aql yoki boshqa rivojlangan kuchlar bilan to'qnash kelganda insonning ruhiyati qanday o'zgarishi masalasi ko'tariladi.

Ilmiy fantastika inson ruhiyatiga juda chuqur kirib boradi, chunki texnologik taraqqiyot va kosmik o'zgarishlar odamlarning psixologiyasini, dunyoqarashini o'zgartiradi. Ruhiyatning tahlili ko'pincha quyidagi asosiy elementlar bilan bog'liq bo'ladi:

• **O'zini anglash va yo'qotish:** Inson o'zini texnologiyalar bilan bog'liq dunyoda qanday his qiladi? Sun'iy onglar va texnologiyalar rivoji sharoitida insonning kimligi masalasi ko'tariladi.

• **Inson va texnologiya o'rtasidagi ziddiyat:** Ilmiy fantastika ko'pincha texnologiyaning inson hayotiga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Texnologiyaning haddan tashqari rivojlanishi insonning ichki dunyosini qanday o'zgartiradi va bu qahramonlarning ruhiyatiga qanday ta'sir qiladi?

Aytek Azimov va Hojiakbar Shayxov asarlarida ichki kurash va ruhiyatga alohida e'tibor qaratilgan. Insonning o'z ichki ziddiyatlari orqali ularning ruhiy holatlari, qaror qabul qilish jarayonlari va hayotdagi muhim voqealarga bo'lgan munosabatlari ochib beriladi.

Aytek Azimovning romanlarida qahramon ruhiyatini ochishda konfliktning o'rni markaziy ahamiyatga ega. Uning asarlarida, ayniqsa ilmiy fantastika janrida, tashqi voqealar va texnologik muammolar bilan bir qatorda inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar ham muhim rol o'ynaydi. Konflikt orqali Azimov qahramonlarining ruhiy olamini chuqur tahlil qiladi va ularni o'zaro muloqotga kirishayotgan dunyo bilan qanday aloqada ekanliklarini namoyon etadi.

Azimovning "Fond" (Foundation) romanlarida konflikt asosan ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orqali namoyon bo'lsa-da, qahramonlarning ichki ruhiy kurashlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu asarlarda koinotning kelajagini belgilovchi buyuk qarorlar qabul qilinishi kerak bo'lgan vaziyatlarda qahramonlar ruhiy inqirozlar va ichki kurashlarga duch keladi. Shaxsiy ambitsiyalar, axloqiy tanlovlar, majburiyat va vijdon o'rtasidagi konfliktlar qahramonlar ruhiyatidagi murakkabliklarni ko'rsatadi.

Masalan, "Fond" romanidagi Hari Seldon qahramoni insoniyatning kelajagini bashorat qilish imkonini beruvchi psixotarixiy fan asoschisi sifatida katta maqsadlar yo'lida harakat qilsa-da, u o'zining insoniy zaifliklari va shaxsiy kurashlari bilan yuzmayuz keladi. Seldon dunyoni qutqarishga uringan bir paytda, uning ichki konfliktlari va shaxsiy hayoti bilan bog'liq qarama-qarshiliklar uning ruhiy holatini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Bu yerda konflikt shunchaki tashqi vaziyatlardan iborat emas, balki qahramonning o'z ichki murakkab his-tuyg'ulari orqali ham rivojlanadi.

Azimovning romanlarida konflikt orqali insonning ma'naviy va axloqiy jihatlari sinovdan o'tadi. Shaxsiy manfaatlar va jamiyatga xizmat qilish o'rtasidagi ziddiyatlar, texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq moral dilemmalar qahramonlarning ruhiy olamini ochishda xizmat qiladi. Bu jarayonda Azimov qahramonlarining intellektual va axloqiy o'sishini ko'rsatadi, ular ichki kurashlar orqali o'z maqsadlarini va kimligini aniqlaydi.

Umuman olganda, Ayzek Azimov konfliktni qahramon ruhiyatini ochishda asosiy vositalardan biri sifatida qo'llaydi. Uning asarlarida qahramonlar ichki kurashlar orqali insoniylikni anglaydilar va bu ularning axloqiy tanlovlarida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, Ayzek Azimovning "Koinot Oqimlari" romanida ham konflikt qahramon ruhiyatini ochib berishda bir necha muhim elementlarni o'zida mujassam etadi. Bu elementlar roman syujetini rivojlantirish va qahramonlarning shaxsiy rivojlanishlarini ko'rsatishda katta rol o'ynaydi. Asarda qahramonlarining (Rik hamda Rezident Terens) o'zlariga ya'ni – ichki hissiyotida kechayotgan voqealarga bo'lgan qarama qarshilik, qahramonlarning boshqa bir qahramonga bo'lgan konflikti, qahramonning jamiyatga bo'lgan konflikti va bir sayyoraning boshqa bir sayyoraga bo'lgan qarama qarshiligini va quyidagi konfliktlarni ko'rish mumkin ko'rish mumkin:

Insoniyat va tabiat o'rtasidagi konflikt: Insoniyatning o'z hayotini saqlab qolish uchun kurashi, tabiat qonunlarini va koinotning noaniqliklarini tushunishga intilishi orqali ifodalanadi. Bu kurash asosan insoniyatning ilmiy va texnologik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, muallifning ilm-fanga bo'lgan ishonchini aks ettiradi.

Ijtimoiy va siyosiy konfliktlar: Asosiy konfliktlardan biri ijtimoiy va siyosiy tuzilmalar o'rtasidagi ziddiyatdir. Har xil guruhlar va fraksiyalar orasida hokimyat uchun kurash, kelajak haqida turli qarashlar va turli siyosiy strategiyalar bu konfliktni kuchaytiradi. Roman asosan Sark va Florina sayyorolari o'rtasidagi ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarni tasvirlaydi. Sarkning Florinani boshqarishi va florinliklarning bu hukmronlikka qarshi kurashi asosiy konfliktlardan biridir. Bu konflikt imperiya va mustamlaka o'rtasidagi ziddiyatlar orqali yoritiladi.

Axloqiy va etik konfliktlar: Asar qahramonlari ko'pincha murakkab axloqiy qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladilar. Vaziyat taqozosi bilan, favqulodda o'z istaklariga qarshi, yoki hayotiy pozitsiyalariga zid bo'lgan qarorlari ham talaygina. Bu qarorlar qahramonlarning shaxsiy rivojlanishiga va ruhiy holatiga ta'sir qiladi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va axloqiy qadriyatlarini sinovdan o'tkazadi. Rikning o'z xotirasini tiklash jarayoni va bu jarayonning natijalari qahramonning axloqiy qadriyatlarini sinovdan o'tkazadi.

Qahramonlar o'z shaxsiy tajribalari va ichki kurashlari orqali rivojlanadilar. Har bir qahramon o'z hayoti davomida turli qiyinchiliklarga duch keladi va bu qiyinchiliklar orqali ular yanada pishiq va yetuk shaxsiyatlarga aylanadilar. Rikning xotirasini tiklash jarayoni uning shaxsiy rivojlanishi va kimligini anglash yo'lida katta rol o'ynaydi. Qahramonlarning motivatsiyasi va maqsadlari roman davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning harakatlari va qarorlari o'z maqsadlariga erishish uchun qanday yo'llar tanlashlariga bog'liq bo'ladi. Bu jarayon qahramonlarning ichki ruhiyatini va ularning hayotga bo'lgan munosabatlarini ochib beradi. Rikning xotirasini tiklashga bo'lgan intilishi va unga bog'liq sirlarni ochishga bo'lgan qiziqishi uning harakatlarini boshqaradi. Azimovning "Koinot Oqimlari" romanida konfliktlar qahramon ruhiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu konfliktlar orqali qahramonlarning individual rivojlanishi va ruhiy holati yanada chuqurroq yoritiladi. Bu elementlar roman syujetini boyitadi va o'quvchiga insoniyatning koinotdagi o'rni haqida chuqurroq tushuncha beradi.

Hojiakbar Shayxovning asarlarida konflikt va uning ruhiyat tasviridagi o'rni muhim o'rin tutadi. Uning ijodida konflikt faqatgina tashqi omillar yoki ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog'liq emas, balki insonning ichki ziddiyatlari va ruhiy holatlari orqali yanada chuqur ma'noga ega bo'ladi. Shayxovning asarlari qahramonlarining ichki kurashlari, ruhiy kechinmalari va ichki dilemmalari atrofida rivojlanadi, bu esa insonning ichki dunyosini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Shayxovning yozuvchilik uslubi qahramonlarning ichki ruhiy kurashlarini chuqur psixologik tahlil qilish orqali namoyon bo'ladi. Konflikt asosan qahramonlarning o'z hayotiy maqsadlari va qarorlariga nisbatan shubhalari, qo'rquv va umid o'rtasidagi ichki kurashlari bilan bog'liq. Shu orqali Shayxov inson ruhiyatini o'ziga xos tarzda ochib beradi. U qahramonlarning ichki ziddiyatlarini tasvirlash orqali inson psixologiyasidagi murakkabliklarni ko'rsatadi.

Masalan, Shayxovning "Telba dunyo" asarida qahramonning o'z hayotiga nisbatan tushkunlik va umidsizlik bilan kurashayotgani tasvirlanadi. Bu kurash uning ruhiy olami va ichki qarama-qarshiliklarini ochib beradi. Qahramon bir tomondan o'zining yashash maqsadini topishga intilsa, boshqa tomondan, hayotning mazmuni haqida shubha qiladi, bu esa uning ichki kurashi va ruhiyatidagi konfliktni yaratadi.

Shayxovning asarlarida konflikt insonning ichki dunyosidagi muvozanatni yo'qotish va uni qayta tiklash yo'lidagi urinishlar bilan bog'liq. Bunday konfliktlar ruhiy kechinmalarga chuqur ta'sir ko'rsatadi va qahramonlarni yanada insoniyroq qilib tasvirlaydi. Shayxovning asarlarida ruhiy ziddiyatlar orqali hayotning murakkabligi, odamlarning o'zini anglash yo'lidagi qiyinchiliklar ko'rsatiladi.

Shu jihatdan Shayxovning konflikt va ruhiyat tasviridagi o'rni badiiy adabiyotda psixologik tahlil qilish orqali o'zining yuksak ijodiy mahoratini namoyish etganligi bilan alohida ajralib turadi.

Hojiakbar Shayxovning romani konfliktlar orqali qahramonlarning ruhiyatini juda yaxshi ochib beradi va o'quvchilarni ularga yaqinlashtiradi. Bu asar insoniy his-tuyg'ularning murakkabligini va hayotning turli qirralarini ochib beruvchi kuchli badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Hojiakbar Shayxovning "Telba dunyo" asari o'zining murakkab konfliktlari bilan ajralib turadi. Bu esa qahramonlarning ruhiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Asarda asosan ichki va tashqi konfliktlar namoyon bo'lsada, tashqi konflikt yaqqol ustunlik qiladi.

Ichki konfliktlar: Asar qahramonlari o'zlari bilan kurashadilar, bu esa ularning ichki ruhiy holatini ochishga yordam beradi. Masalan, bosh qahramon, Samandar o'zining ichki dilemmasi bilan kurashadi, bu esa uning ruhiyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Umrida qo'rquv nima ekanligini bilmagan yigit, ikki lo'ttivorning nayrangiga uchib, o'zligidan ajralib qolishiga bir bahiya qoladi. Qayta ularning nog'oralariga o'ynamaslik uchun o'zi bilan kurash olib boradi.

Tashqi konfliktlar: Roman qahramonlari jamiyat, tabiat yoki boshqa shaxslar bilan bot bot to'qnashadilar. Bu to'qnashuvlar qahramonlarning ruhiy holatini yanada ochib beradi va ularning hayotiy qarorlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shunday to'qnashuvlardan biri bu, Muhammad Kabir Nodirshohning qirol Xoshnaxash bilan uchrashuvi. Ikkovi ham buyuk qudrat sohibi, ikkisinin maqsadi bir – dunyo taxti, butun koinotga egalik qilish dardi. Ikkisi ham bir-biridan qo'rqadi, lekin Xoshnaxash buni umuman bildirmasada, uning xatti-harakatlari, Nodirshohga nisbatan o'ta qattiq qo'lligi, unga qiladigan munosabatidan buni osonlikcha bilib olish mumkin.

Bosh qahramon Samandarga qarama qarshi holda razolatda tengi yo'q Muhammad Kabir Nodirshoh, Xoshnaxash va ularning malaylari va robotlar qo'yiladi. Yozuvchi asarda hayotning oddiy yozilmagan qonunini ko'rsatib beradi. Ya'ni, yaxshilik bor joyda doimo yomonlik ham bo'lishini, bugun do'sting bo'lib, senga yordam qo'lini cho'zgan inson, ertaga eng ashaddiy dushmaniga aylanishi mumkinligini, boshiga kulfat tushganda doim koringa yaraydiganlar bu sening oilang ekanligini, ayrim toifadiga

insonlar borki, ular pul uchun xatto vatanlarini, qo'yinki, o'zlarini ham sotishga tayyor ekanliklarini, mardlik, jasurlik, rostgo'ylik kabi insoniy fazilatlarining qay darajada pok ekanligini yozuvchi o'ta mohirlik bilan o'quvchiga yetqazadi.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ilmiy fantastic asarlarda konflikt va ruhiyat janrning markaziy unsurlari hisoblanadi. Qahramonlar nafaqat texnologik yoki tashqi dushmanlar bilan, balki o'z ichki dunyosi bilan ham kurashadi. Texnologik rivojlanishning qahramonlarning ruhiyatiga ta'siri, o'zini anglash jarayonidagi o'zgarishlar, inson va sun'iy ong o'rtasidagi ziddiyatlar kabi mavzular ilmiy fantastikani yanada chuqurroq va mazmunli qiladi. Ichki kurash va inson ruhiyatini tasvirlash yozuvchilarning ijodiy uslubi va o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oyalarini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Har ikkala adabiyotda ham konflikt qahramonlar ruhiyatini ochib berishda asosiy vosita hisoblanadi. Amerika va o'zbek adabiyotlarida konfliktlar qahramonlarning ichki kurashlarini aks ettirish orqali ularning rivojlanish jarayonini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Maqolada konflikt va ruhiyatning adabiy asar qahramonlarini ochib berishdagi o'rni atroflicha tahlil qilindi. Yozuvchilar konflikt orqali qahramonlarining ichki kurashlari, ruhiy iztiroblari va rivojlanish jarayonini yanada chuqurroq tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Konflikt inson ruhiyatining murakkabligini, qarorlar qabul qilishdagi ziddiyatlarni aks ettirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayzek Azimovning "Koinot oqimlari" hamda Hojiakbar Shayxovning "Telba dunyo" asarlari misolida ko'rsatilgandek, konflikt qahramonlarning ruhiy o'zgarishlariga turtki bo'lib, ularning shaxsiy o'sishi va ichki olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, konflikt yozuvchilarga qahramonlarning ruhiyatini ochib berishda nafaqat dramatik, balki psixologik jihatdan ham boy imkoniyatlar taqdim etadi. Bu vosita orqali yozuvchi qahramonning ichki dunyosini o'quvchiga yanada yaqinroq keltiradi, bu esa asar o'quvchida chuqur taassurot qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asimov I. Foundation // – New York, HarperCollins. 2005. P. 312-317.
2. Shayxov H. Hayot mazmuni. //- Toshkent, Sharq nashriyoti. 2011. B. 145-149.
3. Fromm E. Man for Himself: An Inquiry into the Psychology of Ethics. //- New York, Henry Holt. 2001. 218 b.
4. Jung C.G. The Undiscovered Self. //- London, Routledge. 2009. P. 98-102.
5. Freud S. Civilization and Its Discontents. //- London, Penguin Books. 2010. P. 145-147.
6. James W. The Principles of Psychology. //- Cambridge, Harvard University Press. 2005. P. 432-436
7. Nussbaum M.C. Upheavals of Thought: The Intelligence of Emotions. //- Cambridge, Cambridge University Press. 2010. P. 217-220.
8. Ricoeur P. Memory, History, Forgetting. //- Chicago, University of Chicago Press. 2004. P. 274-278
9. Hamidova S. Badiiy adabiyot va psixologiya. //- Toshkent, Fan nashriyoti. 2012. P. 78-81.